



YOSHLARNING BILISH HARAKATLARINI FAOLLASHTIRISHDA AJDODLARIMIZ TOMONIDAN YARATILGAN PEDAGOGIK MEROSDAN SAMARALI FOYDALANISH

Teshaboyev Alixo'ja Ibragimovich

Nizomiy nomidagi TDPU stajyor-tadqiqotchisi

Annotatsiya: Yosh avlod bilish faoliyati orqali ma'naviy-madaniy, intellektual boyliklar, ajdodlar merosi va xalqning ko'p asrlik ijtimoiy tajribasi hamda qadriyatlarini egallaydi.

Kalit so'zlar: *pedagog, avlod, bilish, faoliyat, ma'naviy, madaniy, intellektual, ajdodlar, meros, xalq, asr, ijtimoiy, tajriba, qadriyat, o'quvchi.*

KIRISH

Bugungi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlarida pedagogik ta'limotlarni o'rganish, uning shaxs aqliy kamolotidagi ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslab berish, o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishda pedagogik imkoniyatlardan unumli foydalanishning nazariy-fundamental asoslarini tadqiq qilishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlarni amalga amalga oshirish jarayonlarini talab etmoqda. Shu bilan bir qatorda ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan pedagogik merosning keng imkoniyatlari, shaxs bilish faoliyatlarini rivojlantirishdagi imkoniyatlari, yoshlarni intellektual rivojlantirish tizimidagi o'rni, va ularning bilish qiziqishlari, ehtiyojlari, motivlarini rivojlantirish imkonini bera olishi, mazkur yondashuvlarni ta'lim jarayoniga tadbiiq etish mexanizmlarini takomillashtirishga yo'naltirilgan tadqiqotlar ko'lamining kengayishiga olib kelmoqda. Yosh avlodning bilish harakatlarini faollashtirishda ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan pedagogik ta'limotlarda, qo'llanilgan metodlar, usul va vositalardan samarali foydalanish, mutafakkirlarning qarashlariga yangi davr nuqtai nazaridan yondashish muhim pedagogik ahamiyatga ega. Bunda yoshlarning o'z-o'zini rivojlantirish salohiyatidan samarali foydalanish hozirgi kunning muhim pedagogik omillaridan biri bo'lib hisoblanmoqda. Zero, yoshlarning bilish harakatlarini faollashtirishda ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan pedagogik merosdan samarali foydalanish orqali, ularning dunyoqarashi kengayib xayot bilan hamnafas yashay olish ko'nikmalari shakillanib boradiga asos bo'la oladi. [2,-B. 6480-6487]

ASOSIY QISM

Bugungi kunda ta'lim tizimida bizga meros bo'lib qolgan ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan pedagogik merosdan samarali foydalanish, uning shaxs imkoniyatlarini kengaytirish, orqali uni intellektual, ma'naviy-axloqiy jihatdan rivojlantirishdagi nazariy-amaliy yo'nalishlarini tadqiq etish yoshlarda o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirishda ajdodlarimiz tomonidan qo'llanilgan didaktik vositalar, usul va metodlaridan foydalanish tizimini vujudga keltirish orqali ularni o'qib o'rganish taqozo qilinmoqda. Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan pedagogik merosni tahlil va talqin qilish, uning shaxs kamolotini ta'minlashdagi imkoniyatlarini ochishga



yo'naltirilgan tadqiqotlarni tizimli tarzda amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytirish vazifasi ham hozirgi kunga kelib ustivor ahamiyat kasb etib, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "jismonan sog'lom, ruhiy va intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash..." [1, 38-b] ustivor vazifa sifatida belgilangan. Bunday yondashuv natijasida ajdodlarimiz merosi vositasida yoshlarning o'quv bilish faoliyatini kengaytirishning nazariy-amaliy asoslarini tadqiq qilish uchun qulay huquqiy me'yoriy asos va ijtimoiy-pedagogik shartsharoitlar vujudga kelmoqda. Bu esa bevosita muassasalardagi ta'lim-tarbiya jarayonida ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan boy ma'naviy meros mazmunini, yoshlarga samarali usullar bilan yetkazib berilishigayam bevosita bog'liq. [3,-B. 417-421]

Xalqning ma'naviy merosi uning o'zligini ifodalaydi va shu orqali unda hayotiy xususiyatlar tizimini ham o'zida aks etadi. Ajdodlarimizning o'ziga xos xatti-harakatlari ularning boy ma'naviy kamolotini o'rganish orqali namoyon bo'ladi. U yoshlar hayotida ajdodlar merosini o'rganish katta ahamiyatga ega. Ajdodlar merosi avlodlarning aql-zakovatini charxlab, ularni faollikka undaydi. Bu faollik bilish faolligi sifatida ham yoshlarni ma'naviy-axloqiy qadriyatlarimizni o'rganish jarayonida namoyon bo'ladi. Ma'naviy-axloqiy qadriyatlarimizni o'rganish yoshlarda, Vatanga sadoqat, mehr-muhabbat tuyg'ularinig kuchayishiga olib keladi. [4,-B. 203-208]

Bilish bu-ob'ektiv borliqni inson ongida aks etishining oliy shakli bo'lib, haqiqiy bilimlar hosil qilish jarayonidir. Insonning bilish faoliyati o'zining muayyan darajalariga ega: hissiy bilish – sezgilar, idrok, tasavvur orqali hosil qilinadi; ratsional bilish – tushunchalar, mulohazalar, aqliy xulosalardan o'tib nazariyalar tarzida ham namoyon bo'ladi. Shuningdek, inson bilish faoliyatining kundalik, badiiy, ilmiy darajalari ham mavjud. Ilmiy bilish faoliyati tabiat va jamiyatning o'ziga xos xususitlarini bilishga qaratilgan. Bilish faoliyati o'zining muayyan yo'nalishlari, aniq maqsad va vazifalariga ega.

Bilish faoliyati yordamida inson atrof-muhitni, olamni, undagi sodir bo'layotgan voqea-xodisalarni terang anglaydi. [5,-B. 197-202] Zero, bilish faoliyati yordamida shaxs ko'plab axborotlar bilan tanishadi ularni o'zlashtiradi va aniq xatti-harakatlar orqali unga munosib javob qaytaradi. [6,-B. 35-42] Insondagi amaliy va kasbiy bilish jarayoni aniq vositalar yordamida shakllanadi. Har bir shaxs aqliy bilish, xissiy bilish kabi bilishkabi shakllarini o'zlashtiradi.

Yosh avlod bilish faoliyati orqali ma'naviy-madaniy, intellektual boyliklar, ajdodlar merosi va xalqning ko'p asrlik ijtimoiy tajribasi hamda qadriyatlarini egallaydi. Ajdodlar merosi va xalqning ko'p asrlik ijtimoiy tajribasi asosida yosh avlodni tarbiyalash kelajakda milliy xususiyatlarning saqlanib qolishiga zamin yaratadi. [7,-B. 82-84] Inson o'zi o'zlashtirilgan bilimlar va ijtimoiy tajribani tushunchalar, qonunlar, prinsiplar, nazariyalar sifatida talqin qiladi va keyingi avlodlarga uzatadi.



Bilish jarayoni o'zining muayyan bosqichlariga ega. Uning bosqichlari shaxsning dunyoni anglash darajasi, bilish faoliyatining shakl va metodlaridan kelib chiqqan holda turli-tuman bo'ladi. Shaxsning bilish faoliyati o'z xarakteriga ko'ra hissiy hamda aqliy bilish shakllariga ajratiladi.

Hissiy bilish jonli mushohadadan iborat bo'lib, bilimning dastlabki manbaidir. Hissiy bilish orqali shaxs ongida narsa va hodisalar to'g'ridan-to'g'ri aks ettiriladi. Hissiy bilish o'zining muayyan shakllariga ega. Ular: sezgi, idrok, tasavvur. Hissiy bilishda narsa va hodisalar shaxs ongida alohida-alohida aks etadi. Shuning uchun ham ular orasidagi aloqadorlik ba'zi hollarda shaxs e'tiboridan chetda qoladi. Insonning sezgilari aqliy bilish manbai sifatida xizmat qiladi. U muayyan dalillarga asoslanadi. Mazkur jarayonda narsa va hodisalar yordamida ular orasidagi o'xshash jihatlarni aniqlanadi.

Ma'lumki, inson tafakkuri nisbiy mustaqillikka ega. Shuning uchun ham tafakkur mantiqiy xulosa chiqarishga ko'maklashadi. Inson xissiy bilishdan aqliy bilishga o'tganda, uning bilish faoliyati sifat o'zgarishiga uchraydi. Aqliy bilish – tushuncha, hukm va xulosa shaklida namoyon bo'ladi. Ilmiy bilish jarayonida empirik bilish bilan nazariy bilish uyg'unlashadi.

Empirik bilish jarayonida inson narsalarga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Empirik bilishning metodlari sifatida kuzatish, tasvirlash, tajriba, o'lchovlarni ko'rsatish mumkin.

Nazariy bilish jarayonida inson hodisalarning mazmun mohiyatini chuqurroq anglashga muvaffaq bo'ladi. Nazariy bilishning shakllari aniqlik, modellashtirish, abstraksiyalash, formallik, nazariyalar yaratish kabilarda namoyon bo'ladi. Inson bilish jarayonida mantiqiy fikrlashning muayyan metodlaridan foydalanadi. Ular o'rganilayotgan ob'ektga yaxlit yondashuv, hamda narsa va hodisalarning rivojlanish jarayonini ifodalaydi. Insonning bilish jarayonida nutq vositalari va turli belgilar alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki ularda shu orqali bilish faoliyatining ko'rsatkichlari aks etadi. Bilish jarayonida ta'lim oluvchilar ko'proq yangi bilimlarni o'zlashtirish va ularni o'z faoliyatlarida faol qo'llash bilan shug'ullanadilar.

Ajdodlarimiz bilish vazifalarini hal qilish maqsadida ta'lim oluvchilar oldiga ko'proq muammoli topshiriqlar, savollar qo'ygan. Ularni izlanishga undagan. Shu orqali talabalarning bilish faoliyatlarini rivojlantirishga erishganlar. Buning uchun ta'lim oluvchilar oldiga ularni izlanishga undaydigan vazifalarni qo'yishga erishganlar. Bilish vazifalarini bajarish ta'lim oluvchilardan mustaqillik va bilimdonlikni talab qiladi. Shu maqsadda maktab va madrasalarda ta'lim oluvchilarning mustaqil bilim olishlariga alohida e'tibor qaratilgan. Ular ko'proq mustaqil mutolaa bilan shug'ullanganlar. Mustaqil mutolaa qilish, mantiqiy mushohada mashqlarini bajarish natijasida ta'lim oluvchilarning bilish faoliyatlari rivojlangan. Buning natijasida ularda qoniqish, ijobiy xis-tuyg'ular va ijod qilishga rag'bat vujudga kelgan. Shuning uchun ham o'rta asrlarda aksariyat madrasa olimlari badiiy ijod bilan shug'ullanganlar.



Didaktik nuqtai nazardan yondoshganda, inson bilish faoliyatini amalga oshirish jarayonida ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan bilimlarni o'zlashtiradi va amaliy faoliyatida qo'llash ko'nikmasini egallaydi. Bunday yondashuv sharq allomalari faoliyatida ustivor o'rin egallagan. Ayniqsa madrasa mudarrislari toliblar har bir mavzuni chuqur o'zlashtirib, zarur amaliy ko'nikmalarni egallaganlaridan keyin yangi mavzuni o'tishga rag'bat ko'rsatganlar. Bilish faoliyati turli xayollar, g'oyalarning tug'ilishiga asos bo'ladi.

Markaziy Osiyoda yashagan buyuk allomalar shaxsni har tomonlama kamol toptirish uchun bilish metodlariga alohida e'tibor qaratganlar. Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Abu Nasr Forobiy kabi mutafakkirlar o'z asarlarida bilish metodlariga alohida e'tibor qaratganlar. [8, 120-b]

Bilish metodlari yaratuvchanlik xarakteriga ega. Allomalar bilish metodlarini empirik va aqliy bilish metodlariga ajratganlar. Empirik bilish metodlari sirasiga mutaxassislar kuzatish, tajriba, tavsiflash, o'lchash kabilarni kiritganlar.

Nazariy bilish metodlari esa abstraksiyalash, formallashtirish, modellashtirish kabilarni o'z ichiga oladi.

Allomalar har bir metodning operatsional, qadriyatli jihatlari mavjudligini e'tirof etganlar.

Metodning operatsional jihati shaxsning bilimdonligi, qobiliyatini ifodalaydi. Qadriyatli jihati esa metodning samaradorligi, aniqligi, tushunarligi, ishonchliligi kabi xususiyatlarni o'z ichiga oladi.

Ajdodlardan avlodlarga shaxsiy iqtidor, nutq, maqsadga yo'naltirilgan holda mehnat qilish, fikrlash faoliyati, faoliyat jarayonida o'z xatti-harakatlarining mohiyatini anglash meros bo'lib o'tadi.

Ajdodlarimiz merosi yosh avlodning muayyan iqtidorlari yordamida ularning muayyan sohasidagi faoliyatlari rivojlanishiga asos bo'ladi. Bu esa yosh avlodning rivojlanishi uchun potensial imkoniyatlarni vujudga keltiradi. Yosh avlodda bilish faolligining rivojlanishi ko'p jihatdan mavjud shart-sharoitlar va ta'lim-tarbiya mazmuni bilan bevosita bog'liq. Ta'lim-tarbiya mazmunida xalq ijtimoiy tajribasining ifodalanishi jarayon sub'ektlarida bilish faolligining vujudga kelishiga asos bo'ladi. Ularda layoqatlar, iqtidor va talantning yorqin tarzda namoyon bo'lishini ta'minlaydi. Yoshlarning bilish layoqatining shakllanishida ajdodlar merosi va pedagogik shart-sharoitlar muhim o'rin egallaydi. Mazkur didaktik vositalar talabalarning anatomik, morfologik layoqatlarini ham rivojlantirishga ko'maklashadi.

Yoshlardagi rivojlanish ko'rsatkichlari ularning integrativ xarakterdagi layoqatlari orqali o'z ifodasini topadi. Bunda umumiy va individual layoqatlar farqlanadi. Umumiy layoqatlar shaxsning faoliyatning turli ko'rinishlaridagi muvaffaqiyatini belgilaydi. Bu: aqliy layoqatlar, qo'l xarakatlarining aniqligi va nozikligi, xotiraning rivojlanishi, nutqning takomillashuvida o'z aksini topadi.

Maxsus layoqatlar esa shaxsning o'ziga xos layoqatlari sifatida namoyon bo'lib, faoliyatning muayyan sohasidagi muvaffaqiyatlarini belgilaydi. Bunday layoqatning



namoyon bo'lishi uchun shaxs o'ziga xos iqtidor egasi bo'lishi lozim. Ular sirasiga: matematik, musiqiy, lingvistik, adabiy, badiiy-ijodiy, texnik, sportga oid, tashkilotchilik layoqatlarini kiritish mumkin.

XULOSA

Shaxsning umumiy va maxsus layoqatlari bir-birini boyitishi, to'ldirishi, takomillashtirishi mumkin. Alohida ahamiyatga ega bo'lgan holatlardan biri shaxs iqtidorlarining meros tarzida bir-biriga o'tishidir. Masalan, loyihalash, san'at asarlarini yaratish kabi iqtidorlar ajdodlardan avlodlarga o'tadi va takomillashib shaxsning bilish faolligini ta'minlaydi.

Ajdodlar merosi vositasida shaxsning bilish faoliyatini faollashtirishda uning qiziqishlari va mayllari muhim ahamiyatga ega. Bu alohida sohalarda shaxsning muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishini ta'minlovchi xodisadir. Bu ko'p jihatdan shaxsning hayot tarzi va ta'limtarbiyasi bilan bevosita bog'liq.

Inson har doim faoliyatning muayyan turiga qiziqadi va uni ajdodlar merosi yordamida o'zlashtiradi. Muayyan muhitda yoshlar ajdodlar tomonidan meros bo'lib kelayotgan faoliyatning muayyan turiga qiziqadilar. Mazkur qiziqishni rag'batlantirish uchun ota-onalar va pedagoglar ularni faoliyatning mazkur turiga ko'proq jalb etishlari lozim. Buning uchun dastlab ularning bilish faolligini ta'minlash talab qilinadi.

Iqtidor shaxs faoliyatning aniq bir sohasida ko'zga tashlanadi, u shuningdek, ko'pincha san'at va fanning muayyan sohasida faoliyat ko'rsatish orqali namoyon bo'ladi hamda shaxs bilish faoliyatining rivojlanish darajasini aniqlashga yordam beradi. Iqtidor har doim shaxs bilish xatti-harakati faoliyatining tarkibida muayyan faoliyatni bajarish jarayonida namoyon bo'ladi

ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон Фармони. - Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й, 6-сон, 70-модда. 38бет.

2. Kadirova Yakitjan Buvabaevna, Kadirova Khalima Buvabaevna. METHODOLOGICAL BASIS OF DEVELOPMENT OF LEGAL IMMUNITY OF STUDENTS ON THE BASIS OF A SUBJECT-ETHICAL APPROACH. Journal of Pharmaceutical Negative Results. 2022/12/23. Pp.6480-6487. DOI: <https://doi.org/10.47750/pnr.2022.13.S09.771>

3. Y Kadirova, K Kadirova SOCIAL ACTIVITY OF PEDAGOGUE IN SOCIO-POLITICAL LIFE OF SOCIETY//Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. В3. – Pp. 417-421

4. Халима Бувабаевна Кадирова. ХАЛҚ ПСИХОЛОГИЯСИДА ИДЕНТИКЛИКНИНГ НАМОЁН БЎЛИШИ// Vol. 2 No. 15 (2023): JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH.Б- 203-208



5. Kadirova Ya. B. YOSHLARDA FUKAROLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH ORQALI VATANPARVARLIK VA BAYNALMINALLIK TUYG 'ULARINI, RIVOJLANTIRISH//JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH VOLUME-2, ISSUE-15 (28-February) Б.197-202

6. BUVABAEVNA K. Y. LEGAL BASIS OF FORMATION OF CIVIC CULTURE IN STUDENTS KADIROVA YAKITJAN BUVABAEVNA: LEGAL BASIS OF FORMATION OF CIVIC CULTURE IN STUDENTS KADIROVA YAKITJAN BUVABAEVNA //Journal of Information Computational Science. – 2021. – №. 1 Pp.35-42

7. Кадирова Х. Б. Миллий идентикликни таназзулига мультимаданий таъсир муаммолари //Учёный XXI века. – С. 82 (Kadirova X. B. Problems of multimadanic influence on the degradation of national identity //uchioniy XXI veka. – P. 82).

8. Буюк сиймолар, алломалар (Ўрта Осиёлик машхур мутафаккир ва донишмандлар). (Нашрга тайёрловчи масъул муҳар. М.Ҳайруллаев) К.2. – Т.: А.Қодирий номли “Халқ мероси” нашр. 1996. – 120 б.

9. Y Kadirova, S Komilova. THE INFLUENCE OF SOCIAL NETWORKS ON HUMAN CONSCIOUSNESS// Science and Innovation.2022 – Т. 1. – №. B8.- Pp.1360-1363

10. Bekmurodov M., Akhmedova F., Kadirova K. Study the process of harmonization formation of personal and professional qualities at students //International Journal of Psychosocial Rehabilitation. – 2020. – Т. 24. – №. S1. – С. 597-605.